

## 2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejoychi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra respublikamizda 7,5 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (12,0 ming birlik) sonidagi ulushi 62,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 19,1 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,4 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-aprel holatiga ularning ulushi 72,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning  
umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotganlarning ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (32,4 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,6 % ga yetdi.


Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,2 % ga teng bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-aprel holatida xizmatlar sohasida 6,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida – 31,2 %, yashash va ovqatlanish sohasida – 11,4 %, tashish va saqlash - 6,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,3 %, axborot va aloqa – 1,8 %, boshqa turlarda - 46,2 % korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

### 2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-aprel holatiga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 1,2 mingtaga ko'paydi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes sub'ektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 1,1 mingtaga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etilib, 38,8 % ni tashkil etdi. Ularning soni 465 taga ko'paydi. 2019-yil yanvar-mart oylarida ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 249 taga yetdi, o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 169 taga oshdi.


Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 17,8 % ga oshganligi qayd etilib, 0,9 mingtaga etdi.

### 2018-yil yanvar-mart oylari nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ko'payishi, birlik




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 175,9 mlrd. so'mga oshib, 1009,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari 34,2 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan ularning hajmi 48,7 mlrd. so'mga oshdi.

### 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, shuningdek, ijara va prokat xizmatlarida kuzatildi.


## 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1009,0</b>	<b>110,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	48,6	96,1
Moliyaviy xizmatlar	178,0	170,7
Transport xizmatlari	179,5	95,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	146,9	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	42,2	104,1
Savdo xizmatlari	344,9	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	21,3	102,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	42,3	119,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,5	116,2
Ijara xizmatlari	20,0	116,1
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	17,8	103,4
Shaxsiy xizmatlar	27,4	101,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	33,0	106,5
Boshqa xizmatlar	44,5	98,3



Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 170,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (119,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (116,2 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 35,1 % ni, ta'lim sohasida – 9,0 % ni, sog'liqni saqlash sohasida - 2,1 % ni tashkil etgan.



Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 344,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 34,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 48,7 mlrd. so'mga oshdi.



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 85,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 178,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 170,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd.so'mda**



Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 42,3 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 19,2 % ni tashkil etdi.



Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 4,1 % ga o'sdi, hajmi esa 7,1 mlrd. so'mga oshib, 42,2 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,6 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda muayyan natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 9,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


## 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1009,0</b>	<b>110,3</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Navoiy sh.	491,1	113,2
Zarafshon sh.	106,5	111,7
Konimex tumani	31,2	102,8
Qiziltepa tumani	77,7	109,6
Navbahor tumani	37,1	106,8
Karmana tumani	131,4	107,9
Nurota tumani	24,0	105,0
Tomdi tumani	18,7	103,6
Uchquduq tumani	37,8	105,5
Xatirchi tumani	53,5	104,7

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Navoiy shahrida (491,1 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 113,2 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shahrida (111,7 %), Qiziltepa (109,6 %) va Karmana tumanlarida (107,9 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Konimex (102,8 %), Tomdi (103,6 %) va Xatirchi (104,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Navoiy (48,7 %), Zarafshon (7,2 %) shaharlari, Karmana (13,0%), Qiziltepa (7,7 %) va Xatirchi (5,3 %) tumanlari egallaydi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**




Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Tomdi (1,9 %), Nurota (2,4 %), Konimex (3,1 %), Navbahor (3,7 %) va Uchquduq (3,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1028,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Navoiy shahrida 3598,5 ming so'mdan Nurota tumanida 263,6 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.



## 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**(71)230-84-37; 0(436)-223-63-31**